



## ARTICLE INFO

Received: 13<sup>th</sup> December 2022

Accepted: 21<sup>th</sup> December 2022

Online: 23<sup>th</sup> December 2022

## KEY WORDS

Valyuta operatsiyalari, qimmatli qog'ozlar, qarz majburiyatlari, oddiy veksellar va trattalar, xalqaro iqtisodiy inqiroz, embargo, eksportning keskin tushib ketishi, «spot» kurs.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqiligiga erishganidan so'ng bozor munosabatlari asosida o'z rivojlanish yo'lini tanlar ekan, zamonaviy moliyaviy bozor va uning vositalariga ehtiyoj paydo bo'la boshladi. 2003 yilda joriy valyuta operatsiyalari bo'yicha so'mni xorijiy valyutalarga erkin konvertirlashni joriy etilishi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning, shu jumladan, tijorat banklarining valyuta operatsiyalarining sezilarli darajada oshishiga olib keldi.

Shuningdek, valyutani tartibga solish va valyuta nazorati sohasiga doirchora-tadbirlar izchillik bilan amalga oshirildi va bu borada asosiy e'tibor eksport operatsiyalari bo'yicha valyuta tushumining to'liq, o'z vaqtida kelib tushishini ta'minlash hamda vakolatli

## TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA OPERATSIYALARI HISOBI VA UNING BANK DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

<sup>1</sup>Mannonov Nabiddin Najmiddin o'g'li

Toshkent moliya instituti DMXM-5 guruh talabasi

<sup>2</sup>Mavlonov Sunnatbek Hamza o'g'li

MMT-35 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7476619>

## ABSTRACT

*Mazkur maqolada davlatlar o'rtasida xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi, valyutaviy qimmatliklar, valyuta boyliklariga bo'lgan mulk huquqining va boshqa huquqlarning o'zga shaxsga o'tishi hamda valyuta boyliklarini to'lov vositasi sifatida ishlatish bilan bog'liq operatsiyalar, valyuta boyliklarini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish va jo'natish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish va jo'natish, xalqaro pul jo'natmalarini amalga oshirish, rezidentlar va norezidentlar o'rtasida milliy valyutadagi operatsiyalar hamda respublikamizda tijorat banklari valyuta operatsiyalarini rivojlantirish borasida jiddiy muammolar va ularga yechim va kerakli xulosalar keltirilgan.*

banklarning valyuta resurslarini ko'paytirishga qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevni shaxsiy tashabbusi bilan 2017 yil 2-sentyabrda "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5177 - sonli Farmon qabul qilindi. Farmonda qayd etilganidek "... valyuta muomalasi sohasining haddan ziyod ma'muriy tartibga solinishi alohida tarmoqlar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun imtiyoz va preferentsiyalarning asossiz ravishda kam samarali bo'lgan tizimini shakllantirdi, biznes yuritishda teng bo'lmagan shart-sharoitlarning vujudga kelishi va raqobatning bozor tamoillari buzilishiga olib keldi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda, tovarlar va



xizmatlar eksportini oshirishda, umuman, mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishida to'sqinlik qiluvchi omilga aylandi<sup>1</sup>".

so'nggi yillarda iqtisodiyotimiz salohiyatini yuksaltirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, milliy valyutani erkin konvertatsiya qilish tizimiga to'liq o'tildi, biznes sohasidagi soliqlar qisqartirildi, kredit olish imkoniyatlari kengaydi, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilib, ularda investorlarga keng imtiyozlar berildi.

Shuningdek, mamlakatimiz valyuta sohasida amalga oshirilayotgan yangiliklardan biri bu – aholi uchun valyuta ayirboshlash amaliyotlarini amalga oshirishni yengillashtiruvchi yangi bank xizmatlarining joriy etilishi hamda yuridik va jismoniy shaxslarning chet el valyutasini erkin sotib olish va sotish uchun keng imkoniyatlarning yaratilishidir.

Tahlil va natijalar.

Bugungi kunda xalqaro savdo aloqalari rivojlanib borar ekan, davlatlar o'rtasida xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish shartnomadagi kelishuvga asosan, o'z milliy pul birligi yoki boshqa davlat pul birligida amalga oshiriladi. Ayni shu jarayonda banklar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning valyuta boyliklarini o'tkazish va qabul qilib olish bilan bir qatorda, konversion valyuta operatsiyalarini amalga oshiradilar.

Mustaqillikning dastlabki yillarida tashqi aloqalarni kengaytirish, respublikaning eksport imkoniyatlarini rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida butun tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish uchun

huquqiy negizlarni yaratib bergan asosiy qonun hujjatlari qabul qilindi. Bular respublikaning iqtisodiy manfaatlarini, O'zbekistonning xorijdagi yuridik shaxslar va (jismoniy) fuqarolarini himoya qilishni ta'minlashga, respublika hududida xorijiy sarmoyadorlar faoliyati uchun huquqiy kafolatlarni belgilab berishga imkoniyat yaratdi.

Valyuta operatsiyalari - bu xorijiy valyutada va valyutaviy qimmatliklar bilan bo'ladigan oldi-sotdi operatsiyalaridir.

Xorijiy valyuta deganda rivojlangan va rivojlanag'tgan davlatlarning banknotalari va almashinuvchi tangalari tushuniladi.

Valyutaviy qimmatliklarga quyidagilar:

- xorijiy valyutada yozilgan qarz majburiyatlari, ya'ni oddiy vekselar va trattalar;
- xorijiy valyutadagi yozilgan qimmatli qog'ozlar;

oltin, platina va boshqa qimmatbaho metallar, toshlar kiradi.

Valyuta operatsiyalariga quyidagilar kiradi: valyuta boyliklariga bo'lgan mulk huquqining va boshqa huquqlarning o'zga shaxsga o'tishi hamda valyuta boyliklarini to'lov vositasi sifatida ishlatish bilan bog'liq operatsiyalar; valyuta boyliklarini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish va jo'natish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish va jo'natish; xalqaro pul jo'natmalarini amalga oshirish; rezidentlar va norezidentlar o'rtasida milliy valyutadagi operatsiyalar.


Umuman esa, valyuta operatsiyalariga quyidagilar kiradi:

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi "Markaziy banki Monetar siyosatning 2020 yil va 2021-2022 yillariga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari"

<http://cbu.uz/uzc/monetarnaya-politika/doklad-o-monetarnoy-politike/>



## Valyuta operatsiya turlari




Tijorat banklarida amalga oshiladigan valyuta operatsiya turlari<sup>2</sup>

Valyuta operatsiyalari asosan valyuta bozorlarida amalga oshiriladi. Rasmiy valyuta-moliya bozorining eng yirik jahon markazlari London, Nyu-York, Frankfurg, Mayn va Tokio shaharlari hisoblanadi. Bu shaharlarda ko'p sonli bo'limlar tarmog'iga va erkin naqd chet el valyutasiga ega juda yirik jahon tijorat banklari faoliyat ko'rsatadi.

Valyuta bozorlarida amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari mohiyatiga ko'ra quyidagicha bo'linadi:

<sup>2</sup> Abdullaeva Sh.Z. "Xalqaro valyuta –kredit munosabatlari" Darslik T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2005




Statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2021 yil va 2022 yilning 4 oyi ichida jismoniy shaxslar tomonidan 1,2 mlrd. dollar miqdorida chet el valyutasi xarid qilingan bo'lsa, shundan 432,3 mln. doll. yoki 36 foizi onlayn-konversiya hissasiga to'g'ri kelmoqda. Umuman olganda, 2021 yilning aprelidan 2022 yilning apreligacha onlayn-konversiya xizmatining jami jismoniy shaxslarga sotilgan valyutadagi har oylik ulushi 9 foizdan 63 foizgacha etdi. Bunda, jami xarid miqdoridagi onlayn-konversiya ulushining keskin o'sishi asosan joriy yilning yanvar oyidan boshlab kuzatilmoqda<sup>3</sup>.

Mamlakatimizda valyuta islohotlarining jadal tarzda olib borilishi rasmiy valyuta bozoridagi operatsiyalar hajmi va undagi ishtirokchilar sonining oshishini ta'minlamoqda. Xususan, 2020 yilda ichki valyuta bozorining barcha segmentlarida, xususan amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi va bozor ishtirokchilari sonida o'sish kuzatildi.

Ichki valyuta bozori segmentlarida chet el valyutasiga bo'lgan talabning o'zgarish dinamikasi<sup>4</sup> (mln.AQSh. dollar)

<sup>3</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari

<sup>4</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari



Ichki valyuta bozoridagi operatsiyalarning umumiy hajmi 19,5 mlrd. AQSh dollarini tashkil etib, 2019 va 2020 yillarga nisbatan mos ravishda 1,7 va 1,3 barobarga o'sdi.

2021 yilda ichki valyuta bozorida xorijiy valyutadagi umumiy taklif hajmi 14,3 mlrd. AQSh dollarini (*Markaziy bank intervensiyalarini hisobga olmagan holda*) tashkil etib, 2010 yilga nisbatan 21 foizga o'sdi.

Xususan, hisobot yilida:

xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan 6,7 mlrd. AQSh dollari sotilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich avvalgi yilga nisbatan 14 foizga oshdi (*2020 yil - 5,9 mlrd. AQSh doll.*);

Moliya vazirligi (*inqirozga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro moliya institutlarining kreditlari*) hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan sotilgan chet el valyutasi miqdori 2,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi.

2021 yilda yuridik shaxslar tomonidan chet el valyutasiga bo'lgan talab 2020 yilga (*13,7 mlrd. AQSh doll.*) nisbatan 12 foizga o'sib 15,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi.

Ushbu davrda, birjadan tashqari valyuta bozorida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan 3,7 mlrd. AQSh dollari miqdorida chet el valyutasi sotib olinib, ushbu ko'rsatkich avvalgi yilga nisbatan 14 foizga oshdi (*2020 yilda - 3,2 mlrd. AQSh doll.*). Shuningdek, valyuta birjasidagi umumiy operatsiyalar hajmi 11 foizga oshib, 11,7 mlrd. AQSh dollariga etdi.

Valyuta bozorida chet el valyutasining asosiy qismi (60 foizi) ishlab chiqarish uchun asbob-uskunalar, tovarlar va xom-ashyo importi, 21 foizi - xalq iste'moli tovarlari va dori-darmon mahsulotlari importi, 15 foizi - xorijiy kreditlarni so'ndirish, 1 foizi - xorijiy investorlar daromadlari repatriatsiyasi va qolgan 3 foizi - boshqa maqsadlar uchun xarid qilingan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining hisobvaraqlar rejasi buxgalteriya hisobining ko'p valyutali tizimiga asoslangan bo'lib, chet el valyutasidagi operatsiyalarning hisobi yuritilishi mumkin bo'lgan barcha hisobvaraqlarda chet el valyutasidagi operatsiyalar hisobini aks



ettirish imkonini beradi. Har bir valyuta turi bo'yicha sintetik hisobni yuritish uchun alohida Bosh kitob, analitik hisobni yuritish uchun esa Yordamchi kitoblar ochiladi.

Valyuta operatsiyalarini audit qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi hamda Moliya vazirligining chet el valyutasidagi operatsiyalarni amalga oshirish va nazorat etishni tashkil qilish tartibi to'g'risidagi ko'rsatmalariga qat'iy rioya etilishiga e'tibor beriladi.

Valyuta hisob operatsiyalarini tekshirishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- valyuta hisob raqamlarining to'g'ri ochilganligi;
- chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarning o'z vaqtida va to'g'ri bajarilganligiga;
- chet el valyutasidagi yuridik va jismoniy shaxslarning hisobvaraqlari bo'yicha buxgalteriya hisobining to'g'ri olib borilishi;
- eksport va import shartnomalarining hisobga olinish ahvoli va ular bo'yicha yig'ma jildlarning yuritilishi ahvoli;
- eksport va import operatsiyalari bo'yicha debitor va kreditor qarzlarning paydo bo'lish sabablari va ular bo'yicha ko'rilgan choralar;
- chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarning o'z vaqtida va to'g'ri bajarilishi;
- valyuta hisobvarag'idagi valyuta mablag'larining o'z vaqtida va to'g'ri qayta baholanishi;
- valyuta ayirboshlash shaxobchasining texnik jihozlanishi va u yerda ish yuritish ahvoli.

Hozirda Respublikamizda tijorat banklari valyuta operatsiyalarini rivojlantirish

borasida jiddiy muammolar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Xorijiy valyutalarga bo'lgan barqaror talabning yuzaga kelmaganligi bu xolatda Respublika valyuta birjasida AQSh dollarini sotib olishga talab uzluksiz oshib borayotganligi ko'riladi. Buning natijasida so'mning AQSh dollariga nisbatan almashinuv kursi to'xtovsiz pasayib bormoqda.

2. Mamalakat joriy valyuta bozorining likvidligini ta'minlash imkoniyati yuzaga kelmagan. Buning natijasida O'zbekiston banklari tomonidan muddatli valyuta operatsiyalari deyarli amalga oshirilmaydi. Buning natijasida esa bankning valyuta operatsiyalarini auditi ham yaxshi amalga oshirilmaydi.

3. Korxonalar va tashkilotlarning joriy valyuta hisob varaqlarini yuritish tartibi haddan ziyod rasmiylashtirilgan va bitimlarning ob'ektiga qarab yo'naltirilgan. Natijada korxonalar faqat belgilangan tovarlarni xarid qilish uchungina to'lovni amalga oshirish xuquqiga ega. Bu tovarlarni xarid qilish uchun tuzilgan shartnomalar tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligida hamda mijozga xizmat ko'rsatuvchi bankda albatta qayd etilishi kerak.

4. Tijorat «spot» kurslarining bozor bahosini shakllantirishda ayrim muammolarni mavjudligi. Bu joriy savdo operatsiyalarini, banklarning depozit ssuda operatsiyalarini amalga oshirishga to'sqinlik qiladi, chunki bunda kursning keskin va favqulotda o'zgarish xavfi saqlanib qoladi;

Bu muammolarni chuqurroq tahlil qiladigan bo'lsak, ularni yuzaga keltirgan shart-sharoitlarni ko'rishimiz mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek tijorat banklari valyuta operatsiyalari hisobi va auditi



Markaziy bankning valyuta operatsiyalarini hisobini yuritishga doir ishlab chiqilgan m'yoriy hujjatlari asosida tashkil qilingan. Bunda barcha operatsiyalar buxgalteriya hisobida milliy valyuta – so'mda aks ettiriladi. Agar omalga oshirilgan chet el valyutasining kursi Markaziy bank tomondan belgilanmagan bo'lsa, u holda kross kurslardan foydalaniladi. Bunday asosiy muammo:

1. Banklarda juda ko'p valyutalar qo'llanilishi va ularning kursini doimiy o'zgarib turishidir. Bundan tashqari tijorat banklarini valyutalarni sotish va sotib olish kursini o'rnatilishi ham bu valyutalar hisobini yuritishda va auditini o'tkazishda qiyinchiliklar tug'diradi.

2. Valyuta kursini o'zgarishidan yuzaga keladigan farq bankning daromad yoki zarari sifatida aks ettirilishi. Aslida bu farq foyda ham zarar ham deb aytish qiyin. Sababi majburiyatlar va aktivlar orasidagi munosabatning holati bu foyda yoki zarar ekanligini ifodalaydi.

Mijozlar bilan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari hisobida ham bir qator muammolar mavjud. Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonida banklar tomonidan faqatgina hujjatlashtirilgan akkreditiv va inkassodan usullarida foydalanish. Boshqa hisob-kitob usullari O'zbekiston amaliyotida qo'llanilishi chegaralangan. Xalqaro amaliyotda bank o'tkazmasi, akkreditivning boshqa shakllari, chek va veksellardan ham foydalaniladi. Bu usullarning joriy etilishi bank buxgalteriya hisobini takomillashtirishga xizmat qilgan bo'lar edi.

Chet el valyutasini sotib olish va sotish operatsiyalarida ham ularni hisobga olish va auditi bo'yicha ba'zi muammolar mavjud. Jumladan valyutani birjadan sotib

olish jarayoniing uzoq davom etishi, kurs farqini yuzaga kelishi oqibatida buxgalteriya hisobida qayta baholash ishlarini qiyinlashishiga olib keladi. Valyuta almashuv shaxobchalaridagi valyuta sotish va sotib olish operatsiyalari hisobini yuritish ham to'la shakllanmagan. Bunga sabab: valyutalarni bir xilligi –faqat AQSh dollari, valyuta sotish va sotib olishdagi cheklovlar, qora bozor va bank kursi orasidagi farqlar hisoblanadi.

O'zbekiston tijorat banklarida valyuta oldi sotdisida faqat spot operatsiyalar qo'llaniladi. Muddatli operatsiyalar esa shakllanmagan. Bularga forvard operatsiyalari, fyuchers va opsiyon operatsiyalarini keltirishimiz mumkin. Oxirgi yillarda svop operatsiyalarini amalga oshirish tartibi ishlab chiqilgan bo'lib bu tartib O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarni rivojlanishida muhim hisoblanadi.

Barchamizga ma'lumki, konvertatsiyani cheklash xorijiy valyutaning "sog'lom" manbalarning (bevosita chet el investitsiyalari va eksportlardan) kelishiga to'siq bo'lib, kapital chiqib ketishiga sabab bo'ladi. Buning natijasida, importni moliyalashtirish va qarzni to'lash uchun hukumat o'zining oltin-valyuta zaxiralarini ishlatishga majbur bo'ladi. Ammo o'zini hurmat qilgan har qanday davlat kelajakni o'ylagan holda, oltin-valyuta zaxiralarini ishlatishni emas, balki uni shakllantirishga harakat qiladilar. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad:

1. Milliy valyuta kursini keskin tushib ketishidan asrash;
2. Kutilmagan vaziyatlarda (harbiy harakatlar, xalqaro iqtisodiy inqiroz, embargo, eksportning keskin tushib ketishi) iqtisodni qo'llab-quvvatlash;



3. Byudjetdagi kamchiliklarni himoyani saqlab qolish;  
to'ldirish, har qanday holatda ham ijtimoiy 4. Imkoniyat bo'lganda foyda olish.

## References:

1. O'zbekiston Respublikasi "Markaziy banki Monetar siyosatning 2020 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari" <http://cbu.uz/uzc/monetarnaya-politika/doklad-o-monetarnoy-politike/>
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni
3. Жумаев Н.Х. Вопросы валютного регулирования и валютного контроля в условиях либерализации экономики Узбекистана. // Экономика и финансы. — Москва, 2007. -№4. с. 69.
4. Jumaev N.X. O'zbekistonda valyuta munosabatlarini taritibga solish metodogiyasini takomillashtirish.T. "Fan va texnologiya", 2007y. 286 b.
5. Mark Eulerich, Jolen Kremin and David A. Wood. Advances in accounting. Factors that influence the perceived use of internal audit's function work by executive management and audit committee;
6. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. -T.:Iqtisod-Moliya. 2017.-762 b.